

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY FAOLIYAT DEFORMATSIYALARI

Xalilov Farxod Furqat o'g'li

Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika kafedrası PhD, dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21260333>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, harbiy xizmat kasbini egallashni dastlabki bosqichining tipik deformatsiyasi ko'rib chiqiladi, shuningdek harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash motivatsiyasi, bo'lajak harbiy xizmatchilarda yuzaga keladigan deformatsiya, ularni oldini olish hamda bartaraf etishda ilmiy-nazariy asoslar bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Harbiy xizmatchilar, deformatsiya, to'qnashuv, intizom, harbiy burch, psixologik salomatlik, shaxsiyat, xulq-atvor, hissiy charchash, kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. sadoqat, jasorat.

Аннотация. В статье рассматриваются типичные деформации начального этапа освоения военной профессии, а также мотивация поддержки военнослужащих, деформации, возникающие у будущих военнослужащих, и научно-теоретические основы их профилактики и устранения.

Ключевые слова. Военнослужащие, деформация, конфликт, дисциплина, воинская обязанность, психологическое здоровье, личность, поведение, эмоциональное истощение, особенности *профессиональной деятельности, преданность, мужество.*

Abstract. This article examines the typical deformation of the initial stage of acquiring the military profession, as well as the motivation to support military personnel, deformation occurring in future military personnel, and the scientific and theoretical foundations for their prevention and elimination.

Keywords. Military personnel, deformation, conflict, discipline, military duty, psychological health, personality, behavior, emotional exhaustion, specific features of professional activity. loyalty, courage.

Inson faoliyatining muhim qismi bo'lgan kasbiy faoliyat nafaqat moddiy, va ma'naviy qadriyatlarni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir inson o'z kasbiy faoliyati davomida shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy mavqei va hayotiy qadriyatlarini mehnat orqali namoyon etadi. Shu bilan birga, kasbiy faoliyatning o'ziga xos muhim qatlamlaridan biri bu harbiy-kasbiy faoliyat hisoblanadi. Harbiy faoliyat xususiyatlari bo'lajak harbiy xizmatchilar zimmalariga yuklanadigan **maxsus talablar**, haqiqiy harbiy xizmatga saralash, tanlash va qabul qilish jarayonida nomzodning fuqaroligi, ma'lumoti, mutaxassisligi, yoshi, bo'yi, vazni, sog'lig'i, jismoniy va kasbiy tayyorgarligi hamda harbiy xizmatni o'tash bilan

bog'liq boshqa shartlar ma'lum darajadagi salbiy va ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

harbiy xizmat — fuqarolar tomonidan Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi;

haqiqiy harbiy xizmat — chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmat;

harbiy xizmatchi — haqiqiy harbiy xizmatdagi fuqaro;

muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisi — Qurolli Kuchlar safida oddiy askarlar tarkibi lavozimlarida majburiy xizmatni o'tayotgan chaqiruv yoshidagi fuqaro, shuningdek zaxiradan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan ofitser.¹

Harbiy xizmatga yangi chaqirtirilgan harbiy xizmatchilarning dastlabki bir oyida ularda adaptatsiya yuzaga kelishi uchun, uzoq yillar davomida bir xil kasbiy jarayonlarda ishtirok etishi, professional majburiyatlarning kuchli psixologik bosimi, stress va hissiy charchash, harbiy vazifalarning bajarishdagi o'ziga xos murakkabliklarini tushuntirish va ularning ko'z oldida ushbu mas'uliyatli vazifalarni bajarilishi ko'rsatiladi va buning ortidan harbiy xizmatchilar o'zlari bilib yoki bilmasdan, dastlabki kasbiy deformatsiya deb nomlanuvchi holatni yuzaga keltirishi tabiiy. Chunki, harbiy xizmatning mashaqqati va burchini dastlabki kunlaridan namoyish qilinmasa, bo'lajak harbiy xizmatchilarda qaysidir ma'noda xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan qarash, mas'uliyatsizlik, bepisand munosabatda bo'lish kabi salbiy xisssiyotlarga berilib, shu nuqtai-nazardan faqat oylik maoshlarini kutadigan, moddiy rag'batlantirishlar bilan harbiy xizmatning asl xizmat vazifalarini yodidan chiqarishi, yoki birdan harbiy xizmatdan bo'yin tovlashi kabi turli xil omillar orqali salbiy kasbiy deformatsiyalar vujudga kelishi mumkin. Har ikkala holatda ham bo'lajak harbiy xizmatchilar harbiy xizmatning dastlabkli bir oyida (ba'zan bu holat uch oy va undan ham ko'p bo'lishi mumkin) kasbiy deformatsiyalarga uchraydi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar kasbiy deformatsiyani erta aniqlash, uning oldini olish va korreksiyalash choralarini ishlab chiqishning zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki deformatsiya chuqurlashgan sari harbiy xizmatchilarning individual salohiyati pasayadi, xizmat majburiyatlarini to'laqonli bajara olmaydi, harbiy jamoa samaradorligi va ijtimoiy muhitga ham salbiy ta'sir kuchayadi.

Shu sababli mazkur mavzu bugungi kunda ilmiy-nazariy hamda amaliy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4447-son qarori. 1-bob, 2-xatboshisi

jihattan dolzarb bo'lib, mutaxassislar oldida kasbiy barqarorlikni ta'minlash, stressni boshqarish va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni qo'yadi. Mazkur maqolada kasbiy deformatsiyaning nazariy asoslari, uning yuzaga kelish sabablari va oqibatlarini, shuningdek, oldini olish hamda korreksiya qilish yo'llari ilmiy tahlil qilinishi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kasbiy deformatsiya atamasi ilmiy muomalaga XX asr o'rtalarida kirib kelgan bo'lib, u mutaxassisning uzoq muddatli kasbiy faoliyat jarayonida shaxsiy va psixologik sifatlarida yuz beradigan o'zgarishlarni ifodalaydi. Jahon psixologiyasida ushbu hodisaga turlicha yondashuvlar mavjud: Psixodinamik yondashuv (Z. Freyd, K. Xorniy) – shaxsiy ziddiyatlar va ichki psixik jarayonlar kasbiy charchash va deformatsiyaning manbai sifatida ko'riladi. Kognitiv yondashuv (A. Bek, A. Ellis) – noto'g'ri fikrlash uslublari, kasbiy vazifalarni noto'g'ri talqin qilish deformatsiyani kuchaytiradi, deb hisoblanadi.²

Masalan, C. Maslach (2001) tomonidan ishlab chiqilgan “emotsional yonish” (burnout) konsepsiyasida kasbiy deformatsiyaning uch asosiy komponenti ko'rsatilgan: hissiy charchash, insonlarga nisbatan sovuqqonlik, kasbiy samaradorlikning pasayishi. Ushbu model bugungi kunda eng ko'p qo'llaniladigan nazariy asoslardan biri hisoblanadi.³

Bo'lajak harbiy xizmatchilarga xizmatga to'laligicha moslashib ketishini, kasbiy deformatsiyalarga chidamligini oshirish maqsadida, harbiy xizmatning dastlabki kunlaridan boshlab, bir yil davomida, “Ustoz-shogird” an'anasiga muvofiq, xizmat yili 15 yil va undan yuqori bo'lgan, xizmat faoliyati davomida yuqori natijalarga erishgan, axloqiy-ruhiy xolati yuqori bo'lgan, hamkasblariga yuksak namuna ko'rsatgan serjant va ofitserlar tarkibidan tayinlanadi. Belgilangan buyruq, reja va dars jadvallariga asosan, o'qitiladi va mustaqil fikrlashga, jismoniy mashqlarni bajarishga va qonunchilikda belgilangan boshqa vazifalarga o'rgatiladi. Bunda ko'p holatlarda harbiy xizmatchilar o'z faoliyatida turli qirralarini ko'rsatishi orqali muvaffaqiyatga erishadilar, jamoaga kirishib, yoshlarni maslahatchisi va do'stiga aylanishadi, boshqasi harbiy birodarlikni, buyruqlarni so'zsiz bajarishni, jismoniy harakat va harbiy burchni mutaqqil va qat'iyatli bajarishga moslashadilar, yana kimdir bo'sh vaqtlarini o'zlarining kamchiliklarini sababini yo'qotishga harakat qilishadi. Bu faoliyat turlarini bittasini ustun qo'yib bo'lmaydi, chunki hammasi zarur hisoblanadi. O'zining kasbiy faoliyatida intelligent, tarbiyaviy,

² Karimova, V. M. (2019). Psixologik xizmat va kasbiy rivojlanish. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

³ Maslach, C., & Leiter, M. P. The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. San Francisco: Jossey-Bass, 2001

axloqiy-ruhiy, axborot, tashviqot, rivojlantirish va o'zini shakllantirish funksiyalarini alohida qiyinchiliklarsiz bajarishga moslashadi. Prinsipialligi, aqliy me'yorlarga qat'iy amal qiluvchi "intelligent-harbiy xizmatchi" yoki "jangchi" yuqori intellektual jismoniy faoliyati, harbiy-jismoniy vazifalarni yuksak darajada ado etuvchi, ma'naviylik, ozodalikni his qilishi bilan o'zligiga ega harbiy xizmatchilar shakllanadi.

Kasbiy faoliyat bilan birga harbiy xizmatchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'zgarishi ham kuzatiladi, bir tomondan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshiriga moslashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sifatlarning intensiv rivojlanishi kuchayadi, boshqa tomondan bu jarayonda ishtirok etmagan sifatlarning o'zgarishi yoki susayishi va xatto yo'qolishi amalga oshishi mumkin. Harbiy xizmatchilar o'zidagi va oilasidagi salbiy-ruhiy o'zgarishlar, kasbiy deformatsiyalar haqida bildirmaslikka, yashirishga urinadi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarda kasbiy buzilishlar va faoliyatdagi muammolar ko'pincha haddan tashqari ish yukining ortiqchiligi, dam olishning yetishmasligi, janglar va favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ruhiy bosim va stressning oshib ketishi, oilaviy muammolarni ortib ketishi (ko'chib yurish va undagi qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, xududdagi ekologik klimintning yomonligi, farzandlarning ruhiy holati), kasbiy o'sishning cheklanganligi ba'zi harbiy xizmatchilarning lavozimda o'sishi yoki qayta tayyorlanish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi turli xil holatlarda o'z aksini topadi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko'rsatish va kasbiy o'sish imkoniyatlarini kengaytirish lozimdir.

Kasbiy buzilishning harbiy xizmatchilarda namoyon bo'lishi ochiq yoki yopiq holatda namoyon bo'ladi, ya'ni ochiq holat harbiy xizmatchilarning xizmat jarayonidagi xatti-harakatlarida, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarida, eng asosiysi, xizmatga munosabatlarining natijalarida ko'rinadi. Yopiq holatda kasbiy deformatsiyaning namoyon bo'lishi, eng avvalo, ijtimoiy-huquqiy, kasbiy munosabatlarga kirishishda namoyon bo'lishi bilan birga, qo'yilgan vazifalarni bajarishdagi xatti-harakatlarida ham namoyon bo'lib bordi.

Temperament, xarakter, qobiliyat kabilar insonning psixologik xususiyatlari bo'lib, ularda insonning ichki dunyosi, ijtimoiy mohiyati o'z ifodasini topadi. Ushbu xususiyatlarni o'rganish harbiy xizmatchiga tarbiyaviy ishlarni va harbiy xizmatni to'g'ri rejalashtirishga yordam beradi. Ko'pgina pedagogika, psixologiya sohasidagi tadqiqotchilarning izlanishlarida kasbiy deformatsiyani quyidagi omillarga bo'lib o'rganishga harakat qilishgan:

a) ob'yektiv omillar, bunga ish joyidagi, jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq

bo'lgan jarayonlar;

b) sub'yektiv omillarga harbiy xizmatchini shaxs sifatida o'ziga xos xarakteri, temperamenti;

v) xizmat vaqtida bajarayotgan vazifasining mohiyatidan kelib chiqadi va uning harbiy xizmatchi ruhiyatiga ta'siri, ba'zida xizmatni o'zi xohlab tanlamaganligi ham ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida doimo o'zining faoliyatidan qoniqmaslik hissi yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, albatta, kasbiy buzilishga olib keladi.

Kasbiy buzilishning xavfli tomoni shundaki, ushbu jarayon ba'zi bir harbiy xizmatchilarning shaxsiy hayotiga, oilasiga ham kirib boradi. Natijada, oilalarning parokandaligiga sabab bo'lishi mumkin. Harbiylar asab jarayonidagi muammolari uning axloqidagi qo'polligida, kasbiy tajriba va malakaning yetishmasligida, axloqidagi buzilishlarda, aqliy rivojlanishidagi ba'zi bir deyarli sezilmaydigan xatti-harakatlarida eng asosiylaridan biri tanqidni ko'tara olmasligida, tanqidni to'g'ri tushunmasligida, qabul qilmasligida. Shaxsdagi psixologik reaksiya va jarayonlarning qanchalik tez yoki sekin kechishi insonning psixologik holatini tashkil etadi. Psixologik holatlar qisqa vaqtli va barqaror turlarga bo'linadi. Ikkala holat ham bir - biri bilan o'zaro uyg'unlashib, doimo inson hayot faoliyatiga ta'sir etib turadi.

Harbiy xizmatchilardagi bu kasbiy buzilishni progress va regress nuqtai nazardan qarashimiz ham mumkin ekan. Regress nuqtai nazardan deyilganda, harbiy xizmatchi kasbiy faoliyati davrida haddan tashqari xizmat bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarni bo'rttirib, oshirib, ko'pirtirib ko'rsatishga harakat qiladi va bu xatti-harakatlar oilasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, oiladagilar bilan ham harbiy xizmatchilarga qilgan kasbiy muomalasini qilishga harakat qiladi, o'zi bu xatti-harakatlarining natijalarini keyinroq tushunadi. Regressivda harbiy xizmatchi kasbiy faoliyatga moslashishi qiyin, progressivda esa xizmatda o'sish, ijobiylik yuzaga keladi va bu regressivning aksi hisoblanadi.

Kasbiy buzilishlar harbiy xizmatchida shakllanib bo'lgan kasbiy sifatlarni ham buzib yuborishga qodir. Harbiy xizmatchining faoliyatida qanchalik muvaffaqiyatga erishishi uning shu paytdagi psixologik holatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bu narsa harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ofitser har bir harbiy xizmatchidagi ruhiy holatni sinchkovlik bilan kuzatib borishi va jamoa manfaatlariga buysundira olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4447-son qarori. 1-bob, 2-xatboshisi.
2. Karimova, V. M. (2019). Psixologik xizmat va kasbiy rivojlanish. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. Maslach, C., & Leiter, M. P. The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. San Francisco: Jossey-Bass, 2001.
4. Безносов С.П. Профессиональная деформация личности. – СПб.: Речь, 2004. - 272 с. 2. Bessonova L., Dobrosmyslova S. Professional and personal competence as a condition for overcoming professional deformation of a social work specialist's personality. Современные исследования социальных проблем. № 1 (09). 2012. 1. Arziqulov D.N Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari – T. 2002.
5. Шишкова Г.В. Социологические аспекты детерминант профессиональных деформаций. Шишкова Г.В. Вестник Уральского государственного университета путей сообщения. – 2014. –№ 1 (21). – С. 116–122.
6. Психологический словарь под редакцией В.П. Зинченко и Б.Г. Мешеряков М., Астрель. Хранитель 2004 г. стр. 366–367.
7. Берковская М.И., Комаров К.Э., Родионов А.В., Сухоруков Н.В. Методические рекомендации по применению средств психологической реабилитации участников локальных военных конфликтов. Социально психологическая адаптация участников боевых действий. Методические рекомендации по организации работы. — М., 2002.
8. Zagarovskaya L.V. Adaptiv salohiyat yoshlarning harbiy xizmatga ijtimoiy psixologik moslashuv omili sifatida, Moskva 2014 yil.